



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

LOGOPEDIYA FANI VA NUTQ NUQSONLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI

Maqsudova Mardona Maqsud qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Special pedagogika, psixologiya, lingvistika va

tibbiyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, insonning to‘laqonli muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlanirishga qaratilgan.

Anatatsiya

Logopediya – bu nutq nuqsonlarini aniqlash, ularning oldini olish va tuzatish bilan shug‘ullanuvchi fan sohasi. Ushbu fan pedagogika, psixologiya, lingvistika va tibbiyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, insonning to‘laqonli muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish va rivojlanirishga qaratilgan.

Nutq – insonning o‘z fikrlarini ifodalash va boshqalar bilan muloqot qilishning asosiy vositasi bo‘lib, u bolaning ijtimoiy hayotga moslashishida muhim ahamiyatga ega. Ammo turli sabablarga ko‘ra ayrim bolalar yoki kattalarda nutqning shakllanishida va rivojlanishida buzilishlar kuzatilishi mumkin. Nutq nuqsonlari shaxsning hayot sifatiga, o‘qish va muloqot qilish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so’zlar: nutq nuqsonlari, fikr, pisixologiya, tibbiyot, miya tuzilish, oila, bola, eshitish, pedagogika, inson, diagnostika, shifokor, tibbiy, sabab, ijtimoiy hayot, maxsus dori-darmon, funksiya.

Аннотация:

Логопедия — раздел науки, занимающийся выявлением, профилактикой и коррекцией нарушений речи. Эта дисциплина тесно связана с педагогикой, психологией, лингвистикой, медициной и направлена на формирование и развитие способностей человека к полноценному общению.

Речь является основным средством выражения мыслей и общения человека с окружающими, а также имеет важное значение для адаптации ребенка к общественной жизни. Однако по разным причинам у некоторых детей и взрослых могут наблюдаться нарушения формирования и развития речи.



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

Нарушения речи отрицательно влияют на качество жизни человека, его способность читать и общаться.

Ключевые слова: нарушения речи, мышление, психология, медицина, структура мозга, семья, ребенок, слух, педагогика, человек, диагностика, врач, медицинский, причина, общественная жизнь, специальная медицина, функция.

Anatation:

Speech therapy is a branch of science that deals with the identification, prevention and correction of speech disorders. This science is closely related to pedagogy, psychology, linguistics and medicine and is aimed at the formation and development of a person's ability to fully communicate.

Speech is the main means of expressing one's thoughts and communicating with others, which is important for a child's adaptation to social life. However, for various reasons, disorders in the formation and development of speech may be observed in some children or adults. Speech disorders have a negative impact on a person's quality of life, ability to read and communicate.

Keywords: speech disorders, thought, psychology, medicine, brain structure, family, child, hearing, pedagogy, human, diagnostics, doctor, medical, cause, social life, special medicine, function.

Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari: Biologik omillar: Markaziy asab tizimi, miya tuzilishi yoki eshitish organlaridagi tug‘ma yoki orttirilgan shikastlanishlar. Masalan, tug‘ilish jarayonidagi travmalar yoki genetik buzilishlar. Ijtimoiy-psixologik omillar: Oiladagi noto‘g‘ri tarbiya, muloqot muhitining cheklanganligi, stress yoki psixologik travmalar.

Tibbiy sabablar: Bolaning og‘ir kasalliklar bilan og‘rishi, ayniqsa erta bolalik davrida, eshitish yoki ko‘rish qobiliyatining buzilishi.

Lingvistik omillar: Ona tilini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklar yoki bir nechta tillarni o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan chalkashliklar.



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

Ushbu omillarni o‘rganish va tahlil qilish logopediya fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Logopediyaning ahamiyati: Logopediya fan sifatida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga egadir. U tilning, nutqning ijtimoiy mohiyati, bolaning nutqi, tafakkuri va butun ruhiy faoliyatning chambarchas bog'liqligi bilan belgilanadi.

Nutq vazifasi insonning muhim ruhiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tafakkur qobiliyatları shakllanadi. So‘zning ahamiyati o‘z-o‘zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu munosabat bilan o‘zida nafaqat nutq birligini, balki tafakkurbirligini ham namoyon qiladi. Ular aynan o‘xshash emas va ma'lum darajada bir-biriga bogliq bolmagan holda paydo bo'ladi. Lekin bolaning ruhiy rivojlanishi jarayonida murakkab, sifat jihatdan yangi birlik nutqiy tafakkur, nutqiy fikrlash faoliyati paydo boladi.

Nutqiy muomala qobiliyatini o‘zlashtirish o‘ziga xos insoniy, ijtimoiy aloqalar uchun zamin hozirlaydi. U tufayli bolaning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari shakllandи va oydinlashadi, uni aks ettirish shakllari takomillashadi. Bolaning nutqni o‘zlashtirishi uning xatti-harakatlarini anglash, rejorashtirish va tartibga solishga imkon beradi.

Nutq muomla faoliyatning turli shakllarini rivojlantirish va jamoa mehnatida ishtirok etish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi. U yoki bu darajadagi nutq buzilishlari (nutq buzilishlarining xususiyatiga bogliq holda) bolaning barcha ruhiy rivojlanishlariga salbiy ta'sir etadi, uning faoliyatida, yurish-turishida aks etadi. Og‘ir nutqiy buzilishlar aqliy rivojlanishga, ayniqsa, bilishi faoliyati oliy darajalariningshakllanishiga ta'siretishi mumkin. Bu nutq va tafakkurning chambarchas bog'liqligi, ijtimoiy, jumladan nutqiy aloqalarning cheklanganligi bilan hog'langandir. Bu jarayonda bolaning atrof-muhitni idrok etishi amalga oshadi.

Nutq buzilishi, nutqiy muomalaning cheklanganligi bola shaxsining shakllanishiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi, aslida bo‘linagan ruhiy buzilishlarni, faoliyatning turli shakllarini rivojlantirish va jamoa mehnatida ishtirok etish uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi.



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

Logopediya fani quyidagi masalalarni o‘rganadi: Nutq buzilishlari turlari:
dislaliya, dizartriya, afaziya, karlik, keksaqlik va boshqalar.

Nutq buzilishlarini tashxislash: buzilish sabablarini aniqlash va uning darajasini baholash.

Davolash usullari: maxsus mashqlar, terapiya, logopedik o‘yinlar va mashg‘ulotlar yordamida nutqni to‘g‘irlash.

Oldini olish choralari: nutqiy rivojlanishdagi muammolarni barvaqt aniqlash va ularni bartaraf etish uchun dasturlar ishlab chiqish.

Nutqni shakllantirish: Bolalarning nutqiy rivojlanishini kuzatib, to‘g‘ri talaffuz va so‘zlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Nutq buzilishlarini aniqlash va to‘g‘irlash: Bunga keksaqlik, dizartriya, afaziya, dislaliya kabi buzilishlarni aniqlash va ularga mos terapiya usullarini qo‘llash kiradi.

Ijtimoiy moslashuv: Nutqida muammosi bo‘lgan shaxslarning jamiyatga qo‘silishi va o‘zini erkin his qilishi uchun sharoit yaratish.

Logopediya nafaqat bolalarda, balki katta yoshdagi insonlarda ham nutq buzilishlarini davolashda muhim rol o‘ynaydi. Bu fan nutq kamchiliklariga ega insonlarning ijtimoiy hayotga moslashuvini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, logopedik faoliyat orqali insonlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga erishiladi.

Logopediya – bu nutq buzilishlarini o‘rganish, diagnostika qilish, oldini olish va davolash bilan shug‘ullanuvchi fan. Bu soha nutq bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etishga qaratilgan maxsus ta’lim va terapiya usullarini ishlab chiqadi.

Logopediya fanining metodologik asoslari: Nutq buzilishini o‘rganishda va tuzatishda logopediya fani nutq va fikrning o‘zaro bogliqligi haqidagi, anomal bolaning rivojlanishidagi umumiy va maxsus qonuniyatlarning o‘zaro



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

munosabatlari to‘g‘risidagi nazariy qoidalarga, nutq va faoliyatning hamkorlikda rivojlanishi haqidagi, ichki va tashqi omillarning o‘zaro ta’siri haqidagi, ruhiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi nazariyaga tayanadi. Nutq buzilishlari va ularni tuzatishdagi muhim muammolarni hal qilish maqsadida logopediya fani materialistik, metodologiyaga tayanuvchi tamoyil va metodlardan foydalilaniladi. Shundan kelib chiqib, logopediya quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi: sistemalilik, komplekslilik, rivojlanisli tamoyilini, nutq buzilishini bolaning psixik rivojlanishidagi boshqa tomonlari bilan o‘zaro bog’liq holda qarab chiqish, faoliyatli yondashuv, ontogenetik tamoyil, etiologiya va mexanizmlarni hisobga olish tamoyili (etiopatogenetik tamoyil), nuqsonli nutqning buzilish alomatlari va tuzilishini hisobga olish, umumdidaktik va boshqa tamoyillar. Ulardan ayrimlarini ko’rib chiqamiz. Sistemalilik tam oyili til haqida murakkab funksional sistema to‘g‘risidagi tushunchaga tayanadi. Uning uizilish komponentlari o‘zaro

chambarchas aloqada bo’ladi. Shu munosabat bilan nutqni, uning rivojlanishi jarayonlarini va buzilishini tuzatishni o’rganish nutq qurilishi tizimining barcha komponentlariga, barcha tomonlariga ta’sir etishini nazarda tutadi. Nutq buzilishlarining o’xshash turlarini logopedik xulosalash, tabaqalashtirib tashxis qilish uchim nutqli va nutqsiz belgilarni, tibbiy, psixologik, logopedik jihatdan tekshirish natijalarini, bilish faoliyatining rivojlanish darajasini va nutq rivojlnnishi nisbatlarini, nutq holati va bolaning sensomotor rivojlanishidagi muhim jihatlarini tuzatish nuqtayi nazaridan tahlil qilish zarur bo’ladi. Bunday hollarda nutq buzilishlarini tuzatish kompleksi, tibbiy-psixologik-pedagogik xususiyatga ega bo’lishi kerak. Shunday qilib, nutq buzilishlarini o’rganish va tuzatishda kamchilik tamoyili muhim o’rin tutadi. Nutq buzilishlarini o’rganish va ularni tuzatish jarayonida anomal bolalar rivojlanishining umumiyligi va o’ziga xos qonuniyatlarini hisobga olish muhimdir. Rivojlanish tamoyili, shuningdek, bolaning yaqin rivojlanishi doirnsida o’rin olgan ma’lum vazifalar, qiyinchiliklar bosqichlarini logopedik ish jarayoniga ajratishni ham ko’zda tutadi. Nutqi buzilgan bolalarni va ularni tekshirish, shuningdek, ular bilan o’tib boriladigan logopedik ishni tashkil qilish bolaning yetakchi faoliyatlarini (predmetli-amaliy, o’yin, tashkiliy) hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Tuzatish - logopedik ta’sir metodikasini ishlab



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

chiqish nutq shakllari va vazifalari namoyon bo'lish izchilligini, shuningdek, bolaning ontogenetik tamoyil) faoliyat turlarini hisobga olgan holda olib boriladi. Nutq buzilishlarining paydo bo'lishi ko'p hollarda biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro murakkab ta'siri bilan bog'langan bo'ladi. Nutq buzilishlarini samarali logopedik tuzatish uchun buzilishning har bir alohida holda buzilish etiologiyasi, mexanizmlari, alomatlarini aniqlash, yetakchi buzilishiarni ajratib ko'rsatish, nuqson tuzilishidagi nutqiy va nutqsiz belgilarning o'zaro munosabatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq buzilishlarini o'rganish va tuzatishda didaktik tamoyillar: ko'rgazmalilik, tushunarlik, onglilik, yakka tartibda yondashish va boshqalar muhim o'rinni tutadi.

Fan sifatida logopediyaning tamoyil va metodlari: Logopediya fani metodlarini shartli ravishda bir necha guruhlarga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh — tashkiliy metodlar qiyosiy longityudinal (dinamikada o'rganish), kompleksli.

Ikkinci guruhnинг empirik metodlar tashkil etadi: observatsion (kuzatish), eksperimental (laboratoriya, tabiiy, shakllanuvchi yoki psixologik-pedagogik sinov), psixodiagnostik (testlar, standartlashtirilgan va xayoliy loyihalashtirilgan, anketalar, suhbatlar, intervyyu) faoliyatini, shuning bilan bir qatorda nutqiy faoliyatini ham talilil qilishning praksimetrik usullari, biografik metod (anomnestik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish).

Uchinchi guruhga olingan ma'lumotlarni miqdor (matematik-statistik) va sifat analizi kiradi. Runda olingan malumotlar EHM ni qo'llagan holda mashinada ishlab chiqiladi.

To'rtinchi guruh — interpretatsion metodlar, uslublar, o'rganilayotgan hodisalar o'rtasidagi aloqalarni nazariy tadqiq qilish usullari (qismlar va butunlik o'rtasidagi, alohida jihatlar va umuman hodisa o'rtasidagi, funksiyalar va shaxs o'rtasidagi hamda boshqa aloqalar). Tadqiqotning obyektivligini ta'minlovchi texnik vositalar: kompyuter, intonograflar, spektograflar, nazometrlar, video nutq, fonograflar, spirometr va boshqa apparaturalar, shuningdek, butun nutq faoliyati va uning ayrim komponentlarini dinamikada o'rganishgina imkon beruvchi rentgenokinofotografiya, glottografiya, kinematografiya, elekiromiografiyalardan keng foydalilanildi.



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

Logopediyaning tarixi va rivojlanishi: Logopediya qadimgi zamonlardan beri rivojlangan. Qadimgi Misr va Yunonistonda nutq buzilishlarini davolashga qaratilgan mashqlar mavjud edi. Yunon faylasufi Demosten og‘zidagi toshlarni ishlatib nutqini yaxshilagan.

Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari:

Biologik omillar: Tug‘ilishdagi jarohatlar, miya yoki asab tizimi shikastlanishi.

Genetik kasalliklar: Down sindromi, eshitish qobiliyati buzilishlari.

Psixologik omillar: Bolalik davrida psixologik travmalar.

Stress va oiladagi ijtimoiy muhitning cheklanganligi.

Ijtimoiy omillar: Bola bilan muloqot qilishning yetishmasligi.

Ko‘p tillilik (bir vaqtning o‘zida bir nechta tilda gaplashish).

Nutq nuqsonlarining turlari: Dizartriya – nutq muskulining noto‘g‘ri ishlashi natijasida yuzaga keladi.

Dislaliya – tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish.

Afaziya – miya jarohati tufayli so‘zlash qobiliyatining yo‘qolishi.

Keksa – gaplashayotganda to‘xtab qolish yoki takrorlash.

Rinofoniya – tovushlarni burun orqali noto‘g‘ri chiqarish.

Qiziqarli faktlar: Nutqning rivojlanishida eshitishning muhimligi: Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning 95% nutq buzilishiga uchraydi.

Miya faqat so‘zlash vaqtida emas, balki tinglash vaqtida ham juda faol ishlaydi.

Dunyo bo‘yicha taxminan 70 million kishi keksa bilan yashaydi.

Zamonaviy yondashuvlar: Sun’iy intellekt: Nutqni tuzatish uchun mobil ilovalar va virtual yordamchilar rivojlanmoqda.

Musiqa terapiyasi: Qo‘schiqlar va ritm yordamida nutqni yaxshilash samarali usullardan biri hisoblanadi.

Sensor stimulyatsiya: Bunday terapiyada eshitish, ko‘rish va teginish orqali nutqni faollashtirishga yordam beriladi.

Nutq nuqsonlarini bartaraf etish usullari: Logopedik mashqlar: Maxsus ovoz chiqarish va nafas olish mashqlari. Qo‘g‘irchoqlar, o‘yinlar va rasmlar yordamida ishlash. Har bir nutq nuqsoni uchun alohida yondashuv: masalan, keksa uchun nafasni boshqarish mashqlari o‘tkaziladi.



E CONF SERIES



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

Logopediyaning muhimligi: Nutq nuqsonlari bilan tug‘ilgan bolalar uchun erta aniqlash juda muhim. Logopedlar yordamida shaxsning muloqot qobiliyati va o‘ziga bo‘lgan ishonchi oshadi. Nutq qobiliyati rivojlantirilgan shaxslar jamiyatda muvaffaqiyatliroq bo‘ladi.

Xulosa:

Logopediya fani nutq nuqsonlarini o‘rganish, ularning oldini olish va tuzatishga qaratilgan muhim sohadir. Nutq nuqsonlari biologik, ijtimoiy va psixologik omillar tufayli yuzaga kelib, shaxsning muloqot qobiliyati va ijtimoiy hayotiga ta’sir qiladi. O‘z vaqtida aniqlangan va to‘g‘ri logopedik yondashuv qo‘llanilgan holda, bu muammolar samarali bartaraf etilishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar va maxsus mashqlar nutqni tuzatish jarayonini yanada samarali qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, logopediya insonlar hayotini yaxshilashga qaratilgan fan sifatida alohida ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

- 1.Turdeyeva.S. “Nutq nuqsonlarini bartaraf etish usullari”. –Toshkent: Fan, 2021.
- 2.O’zbekiston Respublikasi oliy va o’rta maxsus ta’lim
- 3.Elektron resurs.